



XALQ DEPUTATLARI TOMDI TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

YANGI TOMDI QURG'ONI +998 94 375 1465 r.sibayevtomdikengash@nv.uz

2025-yil 25-fevral

VII-7-30-5-75-K/25

Tomdi tumani

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 28-yanvardagi “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi huzurida ekspert guruhi tashkil qilish to‘g‘risida”gi KQ-52-V-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025-yil 28-yanvardagi “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi huzurida ekspert guruhi tashkil qilish to‘g‘risida”gi KQ-52-V-sonli Qarori hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, 7-sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 28-yanvardagi “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi huzurida ekspert guruhi tashkil qilish to‘g‘risida”gi KQ-52-V-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashi huzuridagi ekspert guruhi to‘g‘risidagi Nizom 1-ilovaga muvofiq;
Xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashi huzuridagi ekspert guruhi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Mazkur kengash qarori ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashining doimiy komissiyalari raislari zimmasiga yuklatilsin.
4. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi

Kengash raisi



UMAROV
ORZUMUROD
FAYZULLAYEVICH

Xalq deputatlari Tomdi tumani
Kengashining
2025-yil 25-fevraldagi
VII-7-30-5-75-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Xalq deputatlari Tomdi tuman Kengashi huzuridagi ekspert guruhi to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Xalq deputatlari tuman Kengashi huzuridagi ekspert guruhi to'g'risidagi namunaviy nizom (bundan buyon matnda Nizom deb yuritiladi) Xalq deputatlari tuman Kengashi huzuridagi ekspert guruhi (bundan buyon matnda Ekspert guruhi deb yuritiladi) faoliyatini tartibga soladi.

2. Ekspert guruhi xalq deputatlari tuman Kengashi (bundan buyon matnda mahalliy Kengash deb yuritiladi) va uning doimiy komissiyalari faoliyatini ekspert va axborot-maslahat jihatidan ta'minlash, ularning norma ijodkorligi faoliyati hamda nazorat-tahlil tadbirlarini tayyorlash va o'tkazishga ko'maklashish uchun tuzilgan, o'z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan maslahat organi hisoblanadi.

3. Ekspert guruhi mahalliy Kengash qarori bilan tashkil etiladi.

4. Ekspert guruhining xulosalari tavsiyaviy xususiyatga ega.

5. Ekspert guruhi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, tegishli mahalliy Kengash qarorlariga, mazkur Nizomga hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

2-bob. Ekspert guruhining asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari

6. Quyidagilar Ekspert guruhining asosiy vazifalari hisoblanadi:

mahalliy Kengash sessiyasi kun tartibiga kiritilgan masalalarni doimiy komissiyada dastlabki tarzda ko'rib chiqishda ishtirok etish;

mahalliy Kengash qarorlari loyihalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, qonunchilik hujjatlariga, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsad va vazifalariga mosligi nuqtai nazaridan o'rganib chiqish va tavsiyalar berish;

qonunlarni ularda korrupsiyaga, gender tenglik buzilishiga, boshqa huquqbuzarliklarni sodir etishga shart-sharoit yaratuvchi, shuningdek, tadbirkorlik subektlari uchun ortiqcha ma'muriy va boshqa cheklovlarni joriy etuvchi qoidalar va normalarni aniqlash nuqtai nazaridan tahlil etish;

mahalliy Kengashlar, uning doimiy komissiyalari faoliyatini tashkil qilish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish va zallur hollarda ularni vakillik organlari faoliyatida qo'llash bo'yicha takliflar tayyorlash;

mahalliy Kengash qarorlari loyihalarini ishlab chiqishda doimiy komissiyalarga ko'maklashish;

mahalliy Kengash, uning doimiy komissiyalariga nazorat-tahlil tadbirlarini tayyorlash va o'tkazishda ko'maklashish;

mahalliy Kengash, uning doimiy komissiyalari va deputatlarining fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorligini tahlil qilish, ular o'rtasida hamkorlikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan mahalliy Kengashning faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini o'rganish va har tomonlama tahlil qilish;

mahalliy Kengash deputatlari tomonidan aholi bilan o'tkaziladigan uchrashuv va sayyor qabullar, tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

davlat va hududiy dasturlar loyihalarini, tadbirlar rejalarini va davlat organi faoliyatiga taalluqli, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi boshqa hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan takliflar tayyorlash, qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishda vakolatlari doirasida ishtirok etish, bajarilgan ishlarning samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

davlat organi rahbarlari va xodimlarining fuqarolar bilan uchrashuvlarini, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq ishlarni tashkil etishda qatnashish, ularning amalga oshirilishi ustidan monitoring o'tkazish;

mahalliy Kengash, uning doimiy komissiyalari va deputatlari tomonidan o'tkaziladigan konferensiya, seminar, "davra suhbatlari"ni tashkil etishda ko'maklashish va ularda ishtirok etish.

7. Ekspert guruhi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun:

mahalliy Kengash, uning doimiy komissiyalaridan o'z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni so'rash va olish;

mahalliy Kengash, uning doimiy komissiyalari tomonidan tashkil etiladigan majlislar va boshqa tadbirlar to'g'risidagi axborotni oldindan olish hamda mazkur tadbirlarda belgilangan tartibga qat'iy rioya etgan holda ishtirok etish;

mahalliy Kengash, uning doimiy komissiyalari ishchi guruhlarini tarkibida davlat organlari va boshqa tashkilotlarga borish;

mahalliy Kengashga Ekspert guruhi zimmasiga yuklangan vazifalar yuzasidan takliflar kiritish;

mahalliy Kengashning tegishli doimiy komissiyasi majlisida ishtirok etish va unda ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan fikr bildirish;

mahalliy Kengash hamda uning doimiy komissiyasi faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun zatur bo'lgan davlat organining axborotlari, statistika va boshqa materiallarini belgilangan tartibda olish;

mahalliy Kengash raisining ruxsati bilan ommaviy axborot vositalarida Ekspert guruhi nomidan chiqishlar qilish huquqiga ega.

Ekspert guruhi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

8. Ekspert guruhi o'z faoliyatini amalga oshirishda:

qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilishi;

mahalliy Kengash faoliyati bilan bog'liq qonunchilik hujjatlarida belgilangan cheklavlarga amal qilishi;

mahalliy Kengash yoki boshqa davlat organlarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi;

mahalliy Kengash, uning doimiy komissiyalari cha kotibiyati faoliyat ko'rsatishi uchun to'sqinlik qilmasligi;

fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga uo'l qo'yimasligi;

o'z faoliyati davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo'lsa, maxfiyligiga rioya qilishi shart.

Ekspert guruhining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

3-bob. Ekspert guruhining tarkibini shakllantirish va ishini tashkil etish tartibi

9. Ekspert guruhining tarkibiga rais, rais o'rinbosari, kotib va a'zolari kiradi.

10. Ekspert guruhi a'zolariga, qoida tariqasida, mahalliy Kengash deputatlari, mahalliy Kengash kotibiyati xodimlari, faxriy deputatlar, ilmiy va ta'lim muassasalarining malakali

mutaxassisleri, jamoatchilik faoliyati sohalarida katta amaliy tajribaga ega obro‘-e‘tiborli fuqarolar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari qabul qilinadi.

Ekspert guruhi tarkibi, qoida tariqasida:

xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashi huzurida tashkil qilinganda - 20 kishidan;

xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi huzurida tashkil qilinganda -10 kishidan oshmasligi lozim.

11. Ekspert guruhining tarkibi mahalliy Kengash qarori bilan har yili tasdiqlanadi.

Ekspert guruhining faoliyatiga rahbarlik mahalliy Kengash raisi, Ekspert guruhiga mas‘ul kotiblik mahalliy Kengash kotibiyati mas‘ul xodimlaridan biri tomonidan amalga oshiriladi.

12. Quyidagi holatlarda Ekspert guruhining a‘zolari uning tarkibidan chiqariladi:

ular tomonidan Ekspert guruhi tarkibidan chiqish to‘g‘risida ariza berilganda;

Ekspert guruhining majlislarida muntazam ravishda ishtirok etmaganda;

mazkur Nizomda belgilangan majburiyatlarni, shuningdek Nizom talablarini bir-necha bor buzganda;

ularga nisbatan chiqarilgan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

vafot etganda, shuningdek, sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida ular muomalaga layoqasiz, bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb topilganda.

13. Ekspert guruhining tasdiqlangan a‘zolari haqidagi ma‘lumotlar, shuningdek, ularning aloqa ma‘lumotlari mahalliy Kengashning rasmiy veb-saytida (E-kengash elektron platformasida) e‘lon qilinishi mumkin.

14. Ekspert guruhining raisi:

Ekspert guruhining faoliyatini tashkil qiladi va unga umumiy rahbarlik qiladi;

Ekspert guruhining majlislarini chaqiradi va kun tartibini belgilaydi;

Ekspert guruhining majlislarida raislik qiladi;

Ekspert guruhining ish rejasini, majlisi bayonnomasini va boshqa hujjatlarini tasdiqlaydi;

Ekspert guruhi a‘zolarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarilishini muvofiqlashtiradi;

Ekspert guruhining samarali ishini ta‘minlash bo‘yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

15. Ekspert guruhining raisi bo‘lmagan taqdirda, uning vakolatlari va majburiyatlarini rais o‘rinbosari bajaradi.

16. Ekspert guruhi raisining o‘rinbosari rais yo‘qligida Ekspert guruhining majlislarida raislik qiladi, Ekspert guruhining faoliyatini samarali tashkil qilish bo‘yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

17. Ekspert guruhining kotibi:

Ekspert guruhining faoliyatini uslubiy, tashkiliy-huquqiy va tashkiliytexnik jihatdan ta‘minlash masalalarini hal qiladi;

Ekspert guruhining navbatdagi majlisiga barsha zarur materiallar o‘z vaqtida tayyorlanishini ta‘minlaydi;

kun tartibiga muvofiq Ekspert guruhi majlislari o‘tkazilishini tashkil etadi;

Ekspert guruhi majlisi o‘tkaziladigan sana, joy va taklif etiladigan shaxslar ro‘yxatini Ekspert guruhining raisi bilan kelishadi;

Ekspert guruhining a‘zolarini va taklif etilgan shaxslarni Ekspert guruhi majlisi o‘tkaziladigan joy, sana va vaqt haqida xabardor qiladi;

Ekspert guruhi tomonidan tayyorlanadigan yakuniy hujjatlarning loyihalarini tayyorlaydi;

Ekspert guruhi a‘zolarining fikr-mulohazalari, takliflarini umumlashtiradi;

Ekspert guruhi xulosalarining ko‘rib chiqilishi natijalarini monitoring qiladi va uning natijalarini Ekspert guruhi majlisida ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflar kiritadi;

Ekspert guruhi majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning Ekspert guruhi a'zolari hamda boshqa manfaatdor shaxslarga jo'natilishini ta'minlaydi.

Ekspert guruhining faoliyatini samarali tashkil qilish bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

18. Ekspert guruhining a'zolari o'z majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal qilishda o'z vakolatini boshqalarga o'tkazish huquqiga ega emas. Ekspert guruhining majlisida ishtirok etish imkoni bo'lmagan holatlarda, uning a'zosi majlis kun tartibidagi masalalar bo'yicha o'z fikrini yozma shaklda yuborishi mumkin. Bunda uning fikri majlisda ko'rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi.

Ekspert guruhining a'zolari;

o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish ushup mahalliy Kengash sessiyalarida, uning doimiy komissiyalari tomonidan tashkil etiladigan majlislarda va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etadi;

Ekspert guruhi ish rejalarining loyihasi yuzasidan takliflar tayyorlaydi, ularni Ekspert guruhi majlisida ko'rib chiqish uchun kiritadi va tasdiqlangan ish rejalar bajarilishini ta'minlaydi;

mahalliy Kengash, uning doimiy komissiyalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda qatnashadi;

Ekspert guruhining kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tahliliy va boshqa materiallar tayyorlaydi;

Ekspert guruhining zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

19. Ekspert guruhi faoliyatining asosiy masalalari uning majlisida ko'rib chiqiladi. Ekspert guruhining majlisi uning ish rejaları asosida, qoida tariqasida, har oyda kamida bir marta chaqiriladi.

Ekspert guruhining raisi Ekspert guruhi a'zolarining uchdan bir qismining yozma murojaati asosida uning navbatdan tashqari majlisini chaqirishi mumkin.

Ekspert guruhining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar mahalliy Kengashning rasmiy veb-saytida (E-kengash elektron platformasida) e'lon qilinishi mumkin.

20. Ekspert guruhining majlislariga davlat organlari va tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari taklif etilishi mumkin.

21. Ekspert guruhi majlisi kun tartibining loyihasi Ekspert guruhi kotibi tomonidan Ekspert guruhi raisi va a'zolarining takliflari asosida shakllantiriladi.

22. Ekspert guruhining majlisini uning raisi olib boradi. Rais ishtirok eta olmagan holatlarda, majlisni uning o'rinbosari olib boradi.

Ekspert guruhining majlislarida mahalliy Kengash deputatlari va kotibiyat xodimlari ishtirok etishi mumkin.

23. Ekspert guruhining majlisi, agar unda Ekspert guruhi a'zolarining kamida uarmi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

24. Ekspert guruhining xulosasi majlisda ishtirok etayotgan Ekspert guruhi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

25. Ekspert guruhining har bir a'zosi qabul qilinayotgan xulosalar bo'yicha o'zining fikrini yozma shaklda ifodalashga haqli. Bu holatda uning fikri Ekspert guruhi majlisining bayonnomasiga majburiy tartibda qo'shib qo'yiladi.

26. Ekspert guruhining majlisida qabul qilingan xulosasi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Ekspert guruhi majlisining bayonnomasi kotib tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi va ush kun muddatda mahalliy Kengashga, Ekspert guruhi a'zolariga va manfaatdor shaxslarga yuboriladi.

27. Ekspert guruhining kotibi Ekspert guruhi a'zolari ko'magida Ekspert guruhi xulosalari ko'rib chiqilishini o'rganadi, zatur bo'lgan hollarda, Ekspert guruhining raisiga tegishli takliflar kiritadi.

4-bob. Ekspert guruhi a'zolarini rag'batlantirish

28. Mahalliy Kengash, uning doimiy komissiyalari va Ekspert guruhining majlislarida doimiy ravishda ishtirok etib, mahalliy Kengash hujjatlarini ko'rib chiqish va muhokama qilishda o'z takliflari bilan faol qatnashgan, mahalliy Kengash uchun tavsiyalar, tahliliy materiallar ishlab chiqish, nazorat-tahlil tadbirlarini o'tkazishga ko'maklashish cha ishtirok etish, qabul qilingan qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirishda jonbozlik ko'rsatgan Ekspert guruhi a'zolari rag'batlantirilishi mumkin.

29. Rag'batlantirish mahalliy Kengash raisi, mahalliy Kengash doimiy komissiyasi tashabbusi bilan tashakkurnoma e'lon qilish, turli mukofotlarga tavsiya qilish, yilda bir marta pul mukofoti yoki qimmatbaho sovg'a berish tarzida amalga oshiriladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

30. Ekspert guruhining faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash mahalliy Kengash tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

31. Ekspert guruhining faoliyati uning nizomiga va O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq ekanligini nazorat qilish mahalliy Kengash raisi tomonidan amalga oshiriladi.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlari Ekspert guruhi a'zosining mahalliy Kengash va uning organlari faoliyatidagi ishtiroki davomida uning ish joyini (lavozimini) saqlagan holda, ishdan ozod qilishlari shart hamda bu vaqtda deputatning o'rtacha ish haqi saqlanib qolinadi.

32. Ekspert guruhining va mahalliy Kengash raisining Ekspert guruhi faoliyati bilan bog'liq hujjatlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

33. Ekspert guruhi to'g'risidagi nizom va unga kiritiladigan o'zgartirish hamda qo'shimchalar mahalliy Kengashning qarori bilan tasdiqlanadi.

Xalq deputatlari Tomdi tumani
Kengashining
2025-yil 25-fevraldagi
VII-7-30-5-75-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**Xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashi huzuridagi ekspert guruhi
TARKIBI**

t/r	Familiyasi ismi va otasining ismi	Ish joyi va lavozimi
Ekspert guruhi rahbari		
1	OMAROV Orzumurod Fayzullayevich	Xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashi raisi
Ekspert guruhi rahbari o‘rinbosari		
2	SIBAYEV Rabat Taubayevich	Xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashi kotibiyati mudiri
Ekspert guruhi mas’ul kotibi		
3	NURALIYEV Yelnur Nuraliuli	Xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashi kotibiyati bosh mutaxassisi
Ekspert guruhi a’zolari		
4	BAYANASOV Lays Moldaxmetovich	O‘zbekiston Respublikasi faxriylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroniylar” jamg‘armasi Tomdi tumani bo‘limi raisi <i>Xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashining faxriy deputati</i>
5	ABDULLAYEV Ilyas Asilbekovich	Tomdi tumani Adliya bo‘limi boshlig‘i
6	BAZARBAYEV Mels Kayirbayevich	O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i
7	DUYSENOV Aybol Baymurzayevich	O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi Tomdi tuman bo‘limi boshlig‘i
8	AMETOV Nurbol Janaybekovich	Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari - matbuot kotibi
9	MIRZAGALIYEV Janadin Mirzagaliyevich	Tomdi tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlash sho‘basi bosh mutaxassisi, <i>Korrupsiyaga qarshi kurashish, ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi</i>
10	JANDULLAYEV Batir Nagashibayevich	O‘zbekiston Ekologiya partiyasi Tomdi tuman Kengashi raisi